CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QARSHIBAYEV SIROJIDDIN SHAROBIDDINOVICH

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA TALABALARNING INFOGRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

UO‘K: 378.016:004.4

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Qarshibayev Sirojiddin Sharobiddinovich
Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi..... 3

Қаршибаев Сирожиддин Шаробиддинович
Методика развития инфографической компетентности студентов в среде цифровых технологий..... 23

Karshibaev Sirojiddin
Methodology for Developing Students’ Infographic Competence in the Digital Technology Environment..... 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of Published Works..... 51

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QARSHIBAYEV SIROJIDDIN SHAROBIDDINOVICH

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA TALABALARNING INFOGRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5263 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdullayev Botir Baxtiyor o'g'li** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Muxtarov Farrux Muxammadovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
	Hamidov Jalil Abdurasulovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil "12" 11 kuni soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (544 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "30" 10 kuni tarqatildi.

(2026-yil "30" 10 dagi 35- raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengashi raisi, p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengashi kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta’lim tizimida axborotni qabul qilish, qayta ishlash va taqdim etish shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu borada UNESCO tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Qingdao Deklaratsiyasi[1]da raqamli texnologiyalar yordamida sifatli, teng va inklyuziv ta’limni ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi. Oliy ta’lim tizimida talabalarning kreativ, analitik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Shuningdek, UNESCO “Ta’lim-2030” xalqaro ta’limni rivojlantirish harakat dasturi[2]ni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ta’lim jarayoniga vizual savodxonlik, ma’lumotlar vizualizatsiyasi, dizayn tafakkuri va infografika vositalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi omil sifatida e’tirof etilmoqda. Shu jihatdan infografik kompetentlikni shakllantirish masalasi global ilmiy-pedagogik muammo sifatida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo hamjamiyatida raqamli ta’limning keng joriy etilishi sharoitida talabalarning vizual-analitik faoliyatini metodik jihatdan asoslash zarurati yuzaga kelmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Finlandiya kabi rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimida interaktiv platformalar, masofaviy o‘qitish tizimlari va sun’iy intellekt vositalarining keng qo‘llanilishi talabalardan mustaqil ravishda axborotni vizual transformatsiya qilish, ma’lumotlarni sintez qilish va kreativ taqdim etish qobiliyatini talab etmoqda. Bu esa talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-metodik mexanizm, platforma asosidagi o‘quv jarayoni hamda bilim va qobiliyatlarni baholash tizimini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, elektron ta’lim resurslarini keng joriy etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish raqobatbardosh mutaxassislarning kognitiv faolligini kuchaytirish, axborotni qisqa va aniq shaklda yetkazish, mustaqil fikrlash va kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi aniq vazifalarni qo‘ymoqda. Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikani ishlab chiqish orqali zamonaviy zamon talablariga mos raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash zarurati mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi va strategik ilmiy-pedagogik ahamiyatini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son farmoni “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” , 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, 2020-yil 6-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga

[1] UNESCO. (2015). Qingdao declaration, 2015: Seize digital opportunities, lead education transformation. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233352

[2] https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000393796

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari va qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlarining tadqiqotlarida raqamli pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, masofaviy va elektron ta’lim muhitida o‘quv jarayonini tashkil etish masalalari tizimli ravishda B.B.Abdullayev, F.P.Davronova, A.A.Allamuradov, A.U.Shukurov, S.T.Ruzmetova, Z.X.Mamatova, U.B.Mamutov, N.A.Abdullayeva, S.Y.Ismoilxanov, O.E.Mamarajabov, A.R.Mirzayev, F.Narbayev, X.Tangirov ilmiy izlanishlarida ta’lim jarayonini raqamli muhit asosida modernizatsiya qilish, AKT vositalari yordamida interaktiv darslarni tashkil etish, o‘quv materiallarini vizual dizaynlashtirish hamda talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) olimlari A.V.Bobylev, K.L.Polupan, T.G.Tedoradze, Z.S.Fargieva, Y.V.Vaynshteyn, M.D.Kitaygorodskiy, T.V.Alekseyeva, I.V.Dvoretskaya, S.V.Ostrikov, M.M.Mahrova, T.B.Rapakova, V.V.Laptev, K.V.Zotova, S.P.Ivanova, S.P.Teneriadnova, A.V.Khutorskoy, E.V.Alikinalar tadqiqotlarida infografika vizual axborotni taqdim etish, modellashtirish, individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash hamda talabalarning infografik va raqamli kompetentligini rivojlantirish vositasi sifatida talqin etishgan.

Xorijiy tadqiqotchilar N. R. Nik Husain, A.Haleem, P.Banyard, J.Balslev, S.L.Swiger, N.Phillips, A.J.Parish, V.K.Vratulis, F.Ozdamlı, L.Tarkhova, J.C.Dunlap, R.Krum, N.S.Alrwele, H.Naparin, M.Suseno, S.A.Bhat, E.Jaleniauskiene, J.Debes, R.Arnheim, O.Fragou, D.I.Ismaeel, S.Kibar, J.Lankow, E.R.Tufte, C.Ware, M.Smiciklas, C.N.Knaflic. tomonidan infografika va vizualizatsiya vizual savodxonlikni rivojlantirish, ma’lumotlarni samarali taqdim etish, o‘quv jarayonini faollashtirish hamda raqamli ta’lim muhitida talabalarning tushunishini yaxshilash vositasi sifatida talqin etilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajargan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Guliston davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasining 15/003-01-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimida aniq fanlarni o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish muammolarini

tadqiq qilish” (2023-2025) nomli amaliy loyihasining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning tashkiliy-texnologik omillarini aniqlash;

raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishning integrativ texnologiyalarini takomillashtirish;

talabalarning infografik kompetentligini raqamli texnologiyalarning modulli modifikatsiyalari asosida rivojlantirish samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish jarayoni bo‘lib, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiallarining 60720400 – Texnologik mashinalar va jihozlar bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida 2023-2026 yillarda o‘tkazildi, jami 306 nafar respondent talabalari jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar, metodlar, vositalar hamda infografika asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonining mazmuni va mexanizmlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qo‘yilgan vazifalarni hal etish maqsadida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning turli usullaridan foydalanildi. Jumladan, muammo bo‘yicha falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, taqqoslash va tizimlashtirish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, ta’lim jarayonidagi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, kuzatish, suhbat, anketa va test usullari orqali empirik ma’lumotlar to‘plandi. Ishlab chiqilgan metodik model va metodik tizimning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Olingan natijalarni tahlil qilishda matematik-statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

infografik kompetentlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning tashkiliy-texnologik omillari tayyor obyekt analizi va shablonlar sintezi hamda mustaqil loyiha yaratishga talabalarni motivatsiyalovchi vizual-kommunikatsiya algoritmini kreativ qarorlar iyerarxiyasiga yo‘naltirilgan muhitda individual yondashuv tamoyillari ustuvorligida qo‘llash asosida aniqlashtirilgan;

raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish modeli texnologik, faoliyatli bloklarda axborotlarni vaziyat va personalga mos taqdim etishga tizimli tayyorlaydigan didaktik zanjirning dinamikligini talabalarning erkin-ijodiy faoliyat trayektoriyasiga mos ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishning integrativ texnologiyalari akademik estetika, unikal dizayn integratsiyasida grafika va diagrammalarning xolislik prinsiplari asosida kontent yaratish topshiriqlarini vizual strukturalash hamda mustaqil ta’lim topshiriqlariga implementatsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning infografik kompetentligini raqamli texnologiyalarning modulli modifikatsiyalari asosida rivojlantirish samaradorligi akademik bo‘shliqlar diagnostikasi hamda idrok kanallariga intensiv ta’sirni refleksiv monitoringda differensial darajalanishda qo‘llash asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

talabalarning raqamli ta’lim muhitida axborotni qabul qilish, tahlil qilish, tizimlashtirish va vizual shaklda idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-texnologik omillar aniqlashtirilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan 895-936-sonli nashr guvohnomasiga muvofiq “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilingan hamda Adliya vazirligining DGU 53763-sonli guvohnomasiga binoan “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanidan elektron darslik” nomli elektron dastur yaratilgan;

talabalarning axborot texnologiyalaridan kasbiy va o‘quv faoliyatida foydalanish, texnik tizimlarga oid ma’lumotlarni tahlil qilish hamda raqamli muhitda amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan model takomillashtirilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan 589-354-sonli nashr guvohnomasiga muvofiq “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” nomli darslik nashr qilingan hamda Adliya vazirligining DGU 53768-sonli guvohnomasiga binoan “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari fanidan elektron darslik” nomli elektron dastur yaratilgan;

talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish, o‘quv axborotlarini tahlil qilish, algoritmik fikrlash, ma’lumotlarni vizual-kommunikativ shaklda ifodalash hamda raqamli ta’lim resurslaridan mustaqil foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan dasturiy-metodik ta’minot ishlab chiqilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan 896-915-sonli nashr guvohnomasiga muvofiq “Dasturlash asoslari” nomli darslik nashr qilingan hamda Adliya vazirligining DGU 53764-sonli guvohnomasiga binoan “Talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha raqamli ta’lim resursi” nomli elektron dastur yaratilgan va https://infografika-edu.uz platformasi ishlab chiqilgan;

talabalarning kompyuterli boshqarish tizimlariga oid nazariy bilimlarini amaliy topshiriqlar bilan bog‘lash, raqamli axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va o‘quv jarayonida elektron resurslardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-metodik ta’minot takomillashtirilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan 873-318-sonli nashr guvohnomasiga muvofiq “Kompyuterli boshqarish tizimlari” nomli darslik nashr qilingan hamda Adliya vazirligining DGU 53771-sonli guvohnomasiga

binoan “Axborot texnologiyalari fanidan elektron darslik” nomli elektron dastur yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy va metodik asoslari ishlab chiqilgani, infografik kompetentlikning mazmuni, tuzilmasi hamda tarkibiy komponentlari aniqlashtirilgani, pedagogik va psixologik ta’sir omillari tizimlashtirilgani hamda ushbu kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik model va metodik tizimning takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik model va metodik tizimning oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga joriy etish imkoniyatiga egaligi, yaratilgan raqamli platforma, o‘quv-metodik materiallar hamda infografik ishlarni baholash mezonlari va indikatorlaridan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim jarayonida foydalanish mumkinligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida metodik tavsiya hamda qo‘llanma sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

infografik kompetentlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning tashkiliy-texnologik omillari tayyor obyekt analizi va shablonlar sintezi hamda mustaqil loyiha yaratishga talabalarni motivatsiyalovchi vizual-kommunikatsiya algoritmini kreativ qarorlar iyerarxiyasiga yo‘naltirilgan muhitda individual yondashuv tamoyillari ustuvorligida qo‘llashga oid tavsiyalar “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 13-yanvardagi 01/01-01-30-son ma’lumotnomasi). Natijada, raqamli ta’lim muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini qo‘llash imkoniyatlari kengaytirilgan;

raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish modeli texnologik, faoliyatli bloklarda axborotlarni vaziyat va personalga mos taqdim etishga tizimli tayyorlaydigan didaktik zanjirning dinamikligini talabalarning erkin-ijodiy faoliyat trayektoriyasiga mos ta’minlashga oid takliflar “Bo‘lajak muhandis kadrlarning umumkasbiy kompetensiyalarini innovatsion va raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish mexanizmi” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filialining 2026-yil 1-iyundagi № 01-22/557-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak muhandis kadrlarning umumkasbiy

kompetensiyalarini rivojlantirishda infografik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi raqamli vositalar, infografik topshiriqlar va erkin-ijodiy faoliyat trayektoriyasini amaliy jarayonga tatbiq etish imkoniyati yaratildi;

talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishning integrativ texnologiyalari akademik estetika, unikal dizayn integratsiyasida grafika va diagrammalarning xolislik prinsiplari asosida kontent yaratish topshiriqlarini vizual strukturalash hamda mustaqil ta'lim topshiriqlariga implementatsiya qilishga oid tavsiyalar "Kompyuter tizimlari va tarmoqlari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 13-yanvardagi 01/01-01-30-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning infografik kompetentligini baholashning didaktik va metodik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotimiz natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 nomdagi ilmiy ishlar, jumladan, 3 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tasarrufidagi ilmiy jurnallarda 8 ta maqola, shundan 3 ta xorijiy va 5 ta respublika ilmiy jurnallarida ilmiy maqolalar chop etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining 4 ta mualliflik guvohnomasi (DGU) olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi: Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan. Jahonda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta'lim tizimida axborotni qabul qilish, qayta ishlash va taqdim etish shakllarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Axborot oqimining ortishi hamda vizual kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanilishi natijasida vizual fikrlash va ma'lumotlarni grafik shaklda ifodalash kompetensiyalari zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan infografika vositalari talabalarning kognitiv faolligini oshirish, axborotni tizimli yetkazish va kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiyaning "**Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari keng tahlil qilingan. Bobda avvalo ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonining dolzarbligi, raqamli muhitning pedagogik imkoniyatlari hamda infografikaning ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Mamlakatimizning ta’lim tizimida ham amalga oshirilayotgan tub islohotlar doirasida oliy ta’lim tizimida ilg‘or raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda kommunikatsion vositalardan keng va samarali foydalanish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim muassasalaridagi axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitish raqamli texnologiyalar muhitida infografikaga asoslangan ta’lim resurslaridan foydalanish orqali talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Raqamli texnologiyalar muhiti raqamli qurilmalar, dasturiy ta’minot va tarmoq inshootlari orqali yaratiladigan interaktiv va doimiy yangilanib turadigan tizimdir. U axborotni tezda yaratish, qayta ishlash va tarqatish imkonini beradi, shuningdek, ta’lim, iqtisodiyot, ijtimoiy va ekologik jarayonlarga tub o‘zgarishlar kiritadi. Mualliflar, interaktiv o‘quv platformalari, virtual sinflar va multimedia kontent orqali an’anaviy ta’lim metodlarining cheklovlarini yengib o‘tish, shaxsiylashtirilgan o‘qitish va talabalar ishtirokini kuchaytirish imkoniyatlariga urg‘u berishadi. Ushbu yondashuv, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda raqamli vositalarning o‘rnini ko‘rsatadi.

Tahlillarga ko‘ra raqamli texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun avvalo, zamonaviy texnik infratuzilma va raqamli resurslarga ega bo‘lish zarurligi keyin esa o‘qituvchilarning raqamli pedagogik metodlarni egallashi uchun doimiy professional malaka oshirish va treninglar tashkil etilishi lozimligini ko‘rsatgan.

Quyidagi jadvalda Muhit, Raqamli muhit, Raqamli texnologiyalar muhiti va Ta’limda raqamli texnologiyalar muhiti tushunchalarining farqlari yoritilgan:

1-jadval

Raqamli muhit tasnifi

Tushuncha	**Ta'rifi**	**Asosiy xususiyatlari**
Muhit	Inson yoki tizimning mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan tashqi omillar majmui.	Tabiiy yoki sun’iy bo‘lishi mumkin; biologik, ijtimoiy, texnologik va boshqa turlarga ajratiladi.
Raqamli muhit	Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda inson faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan virtual va texnologik muhit.	Internet, bulutli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ma’lumotlar bazasi va dasturiy ta’minotdan iborat.
Raqamli texnologiyalar muhiti	Raqamli texnologiyalar, dasturiy ta’minot va uskunalar yordamida yaratilgan axborot-kommunikatsion muhit.	Sun’iy intellekt, bulutli hisoblash, IoT (Internet of Things), avtomatlashtirish va boshqa texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.
Ta’limda raqamli texnologiyalar muhiti	Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan muhit.	Masofaviy ta’lim, elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, interfaol doskalar, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli resurslardan iborat.

Bu taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, **raqamli texnologiyalar muhiti** barcha sohalarni qamrab olgan global muhit bo‘lsa, **ta’limda raqamli texnologiyalar**

muhiti ushbu texnologiyalarning faqat ta’lim jarayonidagi qo‘llanilishiga qaratilgan.

Ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi talabalarning bilim olish jarayonini tezlashtirish, ularga vizual va interaktiv materiallar orqali murakkab tushunchalarni soddalashtirilgan shaklda yetkazish imkonini bermoqda. Bu jarayonda ayniqsa infografika muhim o‘rin tutadi, chunki u murakkab axborotni vizual shaklda taqdim etish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Infografika orqali o‘quv materiallari yanada tushunarli, esda qolarli va qiziqarli bo‘lib, talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga ko‘maklashadi. Shuningdek, raqamli muhitda infografikadan foydalanish ta’lim jarayonini nafaqat an’anaviy sinf xonalarida, balki onlayn ta’lim platformalarida ham samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, infografika faqat dizayn yoki estetik vosita emas, balki axborotni maqsadli auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Bizning fikrimizcha, infografika axborotni grafik elementlar (diagramma, ikonka, sxema va boshqalar) orqali tizimli va vizual shaklda ifodalab, uni tez anglash va tahlil qilishni yengillashtiruvchi vositadir.

Infografik kompetentlik faqat texnik vositalardan foydalanish emas, balki axborotni anglash, tanlash, tahlil qilish, vizual tuzilmaga solish, estetik baholash va auditoriyaga mos tarzda taqdim etish bilan bog‘liq murakkab faoliyatdir. Shuning uchun mazkur tadqiqotda infografik kompetentlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar kognitiv, motivatsion, vizual idrok, refleksiv, estetik-dizayn va kommunikativ yo‘nalishlar bo‘yicha quyidagicha tizimlashtirildi:

2-jadval

Talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar

Omil	Mazmuni	Infografik kompetentlikka ta’siri
Kognitiv omil	Vizual axborotni qabul qilish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish	Axborotni anglash, saralash va qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi
Motivatsion omil	Talabaning infografik topshiriqlarga qiziqishi va ichki rag‘bati	O‘quv faoliyatida faollik va mustaqil ishtirokni kuchaytiradi
Vizual idrok omili	Rang, shakl, diagramma, sxema va belgilar orqali axborotni idrok etish	Murakkab mazmunni tez va tushunarli qabul qilishga yordam beradi
Refleksiv omil	Talabaning o‘z infografik ishini tahlil qilishi va baholashi	O‘z-o‘zini baholash va ishni takomillashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi
Estetik-dizayn omili	Kompozitsiya, rang uyg‘unligi, shrift va dizayn me’yorlariga rioya qilish	Infografik mahsulotning sifati va ta’sirchanligini oshiradi
Kommunikativ omil	Fikrni aniq, lo‘nda va auditoriyaga mos vizual shaklda yetkazish	Axborotni samarali taqdim etish kompetensiyasini rivojlantiradi

Ushbu omillar infografik kompetentlikni faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, balki talabaning axborotni anglash, tahlil qilish, vizual tuzilmaga solish, estetik

baholash va kommunikativ tarzda taqdim etish faoliyati bilan bog‘liq murakkab pedagogik-psixologik jarayon sifatida qarash imkonini beradi.

Infografik vositalardan foydalanishda o‘quv mazmunini vizual qayta qurish, infografik dizaynga qo‘yiladigan didaktik talablar, vizual savodxonlikni baholash mezonlari hamda vizual-grafik muhitda faoliyat yuritish uchun zarur kompetensiyalarni aniqlash zarurligi ko‘rsatilgan. Bu esa raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga oid didaktik talablarni belgilashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanib, unda talabalarning infografik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan metodik modelni ishlab chiqish, uning ilmiy-metodologik asoslarini belgilash hamda ta’lim jarayonida qo‘llash mexanizmlari yoritilgan.

Talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish murakkab, ko‘p komponentli pedagogik jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etish mavjud pedagogik modellashtirish yondashuvlariga tayangan holda mualliflik metodik modelini ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli tadqiqot doirasida infografik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelni ishlab chiqishda kompetentlikka asoslangan ta’lim, raqamli ta’lim muhiti va pedagogik modellashtirishga oid mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Infografik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy faoliyatlar quyidagi tamoyillar asosida quriladi:

Tizimlilik tamoyili pedagogik modelning barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Bu tamoyil asosida modelning maqsadi, metodologiyasi, mazmuni, o‘quv jarayoni va natijasi bir-biriga mantiqan bog‘langan holda izchil rivojlanadi. Natijada, metodika bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir yondashuv va baholash mezoni o‘z joyida va tizimli qo‘llaniladi. Shu orqali model tasodifiy elementlar yig‘indisiga emas, balki ilmiy asoslangan, funksional va barqaror ishlaydigan yaxlit tizimga aylanadi. Tizimlilik tamoyili metodikaning uzviyligi, samaradorligi va takrorlanuvchanligini ta’minlaydi.


Interaktivlik tamoyili talabaning o‘quv jarayonidagi faol ishtiroki, fikr almashuvi va ijodiy muloqotga kirishish imkonini yaratadi. Bu tamoyil asosida ta’lim bir yoqlama ma’lumot uzatishdan iborat bo‘lmay, balki o‘zaro hamkorlik, tahliliy fikrlash va muhokama orqali bilimni chuqurlashtirishga asoslanadi.

Infografik kompetentligini shakllantirishda interaktivlik tamoyili muhim o‘rin tutadi, chunki infografika bilan ishlash ko‘proq vizual ifoda, izohli taqdimot va jamoaviy faoliyatni talab etadi. Platformada taqdim etiladigan interfaol topshiriqlar, savol-javoblar, kvest uslubidagi o‘yinli baholashlar aynan shu tamoyilga asoslangan.

Moslashuvchanlik tamoyili o‘quv jarayonini talabaning individual ehtiyojlari, bilim darajasi va o‘rganish uslublariga moslashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Bu tamoyil asosida metodik model qat’iy, bir xil yondashuvlarga emas, balki shaxsiylashtirilgan, sozlanadigan va moslashuvchan ta’lim imkoniyatlariga tayanadi.

Ergonomiklik tamoyili — bu ta’limiy kontent va dizayn elementlarining foydalanuvchi uchun qulaylik, tushunarlilik va estetik jozibadorlik mezonlariga asoslanishini anglatadi. Infografika bilan ishlashda bu tamoyil ayniqsa muhim, chunki vizual materiallar nafaqat axborotni taqdim etishi, balki uni oson qabul qilish, tez anglash va esda saqlash imkonini ham yaratishi kerak.

Bu tamoyillar kreativ dizayn yondashuvi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, talabalar dizayn jarayonida vizual estetikani, funksionallikni va foydalanuvchiga yo‘naltirilganlikni hisobga olishni o‘rganadilar. Shu orqali infografik kompetentligini shakllantirish nafaqat mazmun, balki taqdim etish sifati jihatidan ham takomillashadi.



1-rasm. Infografik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv vositalarining tarkibiy tizimi

Infografik kompetentligini rivojlantirish jarayonida vositalar o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish va natijani vizual mahsulotga aylantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur vositalar didaktik, dasturiy va texnik guruhlarga ajratildi (1-rasm).

Didaktik vositalar infografik faoliyatning mazmuniy va metodik asosini tashkil etadi. Ular qatoriga infografik topshiriqlar, vizual ishlanmalar, grafik organayzerlar, baholash rubrikalari, test va nazorat materiallari hamda muammoli vaziyatlar (keyslar) kiradi. Ushbu vositalar talabaning ma’lumotni tahlil qilish, saralash va vizual shaklga keltirish jarayonini yo‘naltiradi.

Dasturiy vositalar infografik mahsulotni yaratish va tahrirlash imkonini beradi. Jarayonda Infografika-EDU.uz platformasi asosiy muhit sifatida qo‘llanilib, Canva, Visme, Piktochart, MS PowerPoint, Google Forms hamda LMS integratsiyasi orqali o‘quv jarayoni qo‘llab-quvvatlanadi. Bu vositalar vizual dizayn va interaktiv elementlarni yaratishga xizmat qiladi.

Texnik vositalar esa jarayonning texnologik ta’minotini tashkil etadi. Kompyuter, planshet, smartfon, interaktiv doska, internet tarmog‘i hamda server infratuzilmasi platformaning barqaror ishlashini ta’minlaydi va o‘quv faoliyatining uzluksizligini kafolatlaydi.


Baholash jarayonining diagnostik, formativ, refleksiv va summativ bosqichlar asosida tashkil etilishi infografik kompetentligining rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini bersada, ushbu jarayonning ilmiy obyektivligini ta’minlash uchun aniq va tizimli baholash mezonlarini belgilash zarurati yuzaga keladi. Chunki kompetentlikning shakllanishi faqat faoliyat bosqichlari bilan emas, balki mazkur faoliyat natijalarini tavsiflovchi sifat ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Tadqiqotda infografik kompetentlik murakkab va ko‘p komponentli pedagogik hodisa sifatida qaralib, uning shakllanish darajasini baholash uchun **Vizual-kreativ, Analitik-strukturaviy, Amaliy-texnologik** mezonlar majmuasi tanlandi.

3-jadval

Infografik kompetentligining rivojlanish darajalari

Daraja	Vizual-kreativ mezon	Analitik-strukturaviy mezon	Amaliy-texnologik mezon
Yuqori	Original vizual konsepsiya ishlab chiqadi. Kompozitsiya muvozanatli, vizual ierarxiya aniq. Rang va tipografika ongli tanlangan. Grafik elementlar mazmunga to‘liq mos.	Axborotni ishonchli manbalardan tanlaydi va saralaydi. Asosiy va ikkilamchi ma’lumot aniq ajratilgan. Mazmun mantiqiy strukturalangan. Grafik turi maqsadga mos tanlangan.	Platforma talablari asosida ishlaydi. Dasturiy vositalardan samarali foydalanadi. Format va rasmiylashtirish talablariga rioya qiladi. Mahsulotni sifatli va o‘z vaqtida topshiradi.
O‘rta	Vizual yechim mavjud, ammo yetarli darajada original emas. Kompozitsiyada ayrim nomuvofiqliklar bor. Rang va shrift tanlovida kichik xatolar uchraydi.	Axborotni tanlaydi, biroq saralash yetarli emas. Strukturada qisman mantiqiy uzilishlar mavjud. Grafik turi to‘liq asoslanmagan.	Platformadan foydalanadi, lekin yo‘riqnomaga to‘liq amal qilmaydi. Format yoki rasmiylashtirishda kamchiliklar mavjud. Topshiriq bajarilgan, ammo sifat jihatdan to‘liq emas.
Boshlang‘ich	Tayyor shablonlardan foydalanishga moyil. Kompozitsiya tartibsiz yoki haddan tashqari yuklangan. Vizual ierarxiya yetarli shakllanmagan.	Ma’lumot tanlashda aniqlik yo‘q. Asosiy g‘oya ajratilmagan. Mazmun strukturasiz yoki mantiqsiz joylashtirilgan.	Platformadan foydalanishda qiyinchilik mavjud. Texnik talablar bajarilmagan. Mahsulot to‘liq yoki sifatli rasmiylashtirilmagan.

Mazkur darajalar tavsifi talabalarda shakllangan infografik kompetentligini sifat jihatdan aniqlash, ularni rivojlanish bosqichlari bo‘yicha farqlash hamda qo‘llanilgan baholash mezonlarining amaliy ifodasini aniqlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tajriba-sinov jarayonida olingan natijalarni tizimli va ilmiy asosda tahlil qilish uchun metodik asos vazifasini bajaradi.



2-rasm. Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantiruvchi modeli

Ishlab chiqilgan metodik model raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini shakllantirish jarayonini tizimli tashkil etish, o‘quv faoliyatini interaktiv va motivatsion asosda olib borish hamda infografik faoliyatni samarali baholash imkonini beruvchi pedagogik mexanizm sifatida asoslab berildi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili, kompetentlikka asoslangan ta’lim yondashuvi, raqamli texnologiyalar imkoniyatlari hamda pedagogik modellashtirish talablarini inobatga olgan holda, raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mualliflik metodik modeli ishlab chiqildi va taklif etildi. Mazkur model metodologik, jarayon va natijaviy bloklarning o‘zaro uzviyligi asosida tuzilgan bo‘lib, infografik kompetentligini shakllantirish jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etishni ta’minlaydi (2-rasm).

Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim resursi konsepsiyasi dissertatsiyaning 2.1-bobda ishlab chiqilgan metodik modelga tayangan holda shakllantirildi. Mazkur konsepsiya ta’lim jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich va talaba faoliyatiga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishni ko‘zda tutadi. Shundan kelib chiqib, yaratilgan platforma infografik kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik, texnologik va psixologik shart-sharoitlarni yagona raqamli muhitda mujassamlashtiradi.


Platforma tarkibida mashhur onlayn infografika vositalariga tezkor murojaat qilish imkonini beruvchi bo‘lim ham mavjud bo‘lib, u talabaning tashqi raqamli resurslar bilan integratsiyalashgan holda ishlashini ta’minlaydi. Shu tariqa, platforma infografik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi modullar majmuasidan iborat yagona raqamli muhit sifatida shakllanadi.

Shu tariqa, talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan raqamli ta’lim platformasining umumiy tuzilmasi va tarkibiy modullari tizimli ravishda yoritildi.

Ma’ruza jarayonida, avvalo, **vizual fikrlash metodi** qo‘llanildi. Ushbu metod orqali mavzuga oid asosiy tushunchalar sxema, diagramma va infografik elementlar asosida taqdim etildi.

Natijada talabalar axborotni matnli shaklda emas, balki vizual tuzilma asosida qabul qilish, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni ajratish hamda vizual ierarxiyani anglash ko‘nikmalarini egalladilar. Bu holat infografik kompetentlikning kognitiv komponentini shakllantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, **interfaol taqdimot metodi**dan foydalanildi. Ma’ruza davomida slaydlar tayyor ma’lumotlarni o‘qib berish uchun emas, balki muhokama, tahlil va solishtirishga undovchi vosita sifatida qo‘llanildi. Talabalar taqdimot dizayni, axborot zichligi va vizual uyg‘unlik jihatidan slaydlarni baholash orqali infografik vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Ushbu metod infografik kompetentlikning operatsion komponentini mustahkamladi.



3-rasm. Infografika EDU platformasining umumiy integrallashgan strukturaviy tuzilmasi

Bundan tashqari, ma’ruza mashg‘ulotida **grafik organayzerlardan foydalanish metodi** qo‘llanildi. Mavzu mazmuni mantiqiy bloklarga ajratilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi grafik ko‘rinishda ifodalandi.

Ma’ruza jarayonida **muammoli bayon qilish metodi** ham qo‘llanilib, talabalarga samarali va samarasiz taqdimot namunalari taqqoslash asosida tahlil qilish vazifalari berildi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarning infografik kompetentligini rivojlantirish metodikasini amaliyotda qo‘llashning samaradorligi (tajriba–sinov natijalari asosida)”** deb nomlangan uchinchi bobida ishlab chiqilgan metodik model va elektron o‘quv platformasini oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari hamda metodikaning talabalarning infografik kompetentligini shakllantirish darajasiga ta’siri yuzasidan olingan ma’lumotlar keltirilgan.

